

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti “Hayvonlar fiziologiyasi, biokimyosi va patologik fiziologiyasi” kafedrasining professor v.b., v.f.n. R.F.Ro‘ziqulov tomonidan tayyorlangan**

**“608111500 – Zooinjeneriya (qorako‘Ichilik)” bakalavriat ta’lim yo‘nalishining 2 – bosqich**

**201 –guruh talabalari uchun “Hayvonlar fiziologiyasi” fanidan  
“Teri fiziologiyasi” mavzusida o‘qiladigan ma’ruza matniga**

### **T A Q R I Z**

“Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunga mos ravishda yuqori malakali, jahon andozalariga mos keladigan veterinariya mutaxassislarini tayyorlashda “Hayvonlar fiziologiyasi” fanining ahamiyati kattadir.

Chunki bu fan barcha biologik fanlar bilan chambarchas bog‘liq holda hayvonlarning fiziologik ko‘rsatkichlarini bilish, ularning organizmida kechadigan fiziologik jarayonlarning asosini o‘rganib, undan chorva mollarining tuyog‘ini saqlash, sonini ko‘paytirish, sog‘lomligini ta’minalash va mahsuldarligini oshirish uchun foydalanish zaminini yaratadi.

Shuning uchun ham “Hayvonlar fiziologiyasi” fani chorvachilik va veterinariya tizimining ajralmas bo‘g‘ini hisoblanadi.

“Hayvonlar fiziologiyasi” fanidan “Teri fiziologiyasi” mavzusi bo‘yicha ma’ruza matni “608111500 – Zooinjeneriya (qorako‘Ichilik)” bakalavriat ta’lim yo‘nalishining o‘quv va ishchi o‘quv rejalarini hamda ushbu fanning o‘quv va ishchi o‘quv dasturlariga muvofiq yozib tayyorlangan.

Tayyorlangan ma’ruza matnida mavzuning 4 ta savoldan iborat rejasি, tayanch iboralar, ta’lim texnologiyalari, mashg‘ulotning texnologik xaritasi alohida-alohida bat afsil yoritilgan.

Ushbu ma’ruza matnida talabalarining “Teri fiziologiyasi” mavzusi bo‘yicha nazariy bilimlarini boyitish va to‘ldirish, terining ahamiyatini, vazifalarini hamda teri faoliyatiga bog‘liq bo‘lgan fiziologik ko‘rsatkichlarni chuqurroq bilishi maqsad qilib qo‘yilgan hamda foydalanish uchun internet saytlari, zarur adabiyotlar ro‘yxati berilgan. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalardan foydalanib, ma’ruzani o‘qish uchun taqdimot tayyorlangan.

Muallif tomonidan “608111500 – Zooinjeneriya (qorako‘Ichilik)” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun “Hayvonlar fiziologiyasi” fanidan tayyorlagan “Teri fiziologiyasi” mavzusi bo‘yicha ma’ruza matni Oliy ta’lim talablariga javob beradi deb hisoblayman.

Shuning uchun ushbu ma’ruza matnini o‘quv jarayonida qo‘llashga tavsiya etaman.

**Samarqand DVMChBU “Hayvonlar fiziologiyasi, biokimyosi va patologik fiziologiyasi” kafedrasining dotsenti, b.f.n.**

**D.Eshimov**